

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.R.Asqarov, M.M.Mo'minov, U.Sh.Xusanov

Gulxayri(*Althaea officinalis* L.) o'simligini kimyoviy tarkibi, gulxayri moyini elementlar analizi va uning xalq tabobatidagi axamyati..... 117

BIOLOGIYA**Sh.X.Yusupova, I.I.Zokirov**

No'xat agrotsenozi zararli entomofaunasining ekologo-faunistik tahlili (Shimoliy Farg'ona misolida) 124

K.Zokirov, A.K.Xusanov, O.T.Sobirov, M.F.Xafizddinov, D.A.Saidjaxonova, S.T.Tillayeva, A.A.Kozimov

Sharqiy Farg'ona sharoitida terak qabariq qalqondori (*Diaspidiotus slavonicus* (green, 1934)ning biologik va zoogeografik xususiyatlariga oid..... 132

Z.J.Isomiddinov, D.A.Mirzaliyeva

Xushbo'y shivit (*Anethum graveolens* L.) o'simligining biokimyoviy xossalari 140

F.I.Xalmetova, X.S.Axmedov, S.N.Buranova, A.N.Botirbekov

Reaktiv artritning genetik jihatlari 143

M.R.Shermatov

Farg'ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqanotli hasharotlarining (insecta: Lepidoptera) zoogeografik tahlili 147

K.Z.Yakhyayeva, F.F.Xoltayeva, K.K.Aliyeva

Chaqaloqlarda buyrak patologiyasi sabalari 154

M.A.Raximov

Mollarni go'shtga boqishda genetik imkoniyatlaridan samarali foydalanish 158

M.X.Mirraximova, N.Y.Nishonboeva

Genining polimorfizmi atopik dermatitda 162

G.M.Zokirova

Farg'ona vodiysi sharoitida *Cinara tujafilina* (Del Guercio, 1909) shirasining (Homoptera, Lachnidae) biologiyasi 166

E.A.Botirov

Janubiy Farg'onaning Agrotis avlodi tunlam kapalaklari faunasi va ekologik xususiyatlari..... 170

G.M.Duschanova, N.A.Sobirova, D.A.Abdullayev

Toshkent botanika bog'i sharoitida *Eremurus lactiflorus* O. Fedtsch. (Xanthorrhoeaceae) o'simligi bargining strukturaviy xususiyatlari 176

F.M.Abdualiyeva, Sh.S.Xushmatov

Andijon shahrida joylashgan №1-son maktab o'quvchilarining (1-11 sinf) anfimova testi asosida intellektual rivojlanish darajasi tahlili..... 182

GEOGRAFIYA**Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abdualiyev**

Aholining hududiy taqsimlanishini tahlil qilishida zamonaviy iqtisodiy-geografik tadqiqotlarning zarurati 187

ILMIY AXBOROT**G.M.Mansurov**

Nemis tili darslarida til o'yinlari yordamida suhbatlashish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'rganish..... 192

N.A.Sharopova

Qashqadaryo viloyati umumta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlari va ularning natijasi 196

O.A.Maniyozov, A.A.Bozorqulov, O.S.Isomiddinova

Ta'lim jarayonida birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglamalarni yechimini maple dasturida topish 199

D.O'.Qarshiyeva

Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kvest texnologiyasi asosida darslarni tashkil etish kompetentligini rivojlantirish 203

G.B.Nafasova, B.S.Abdullayeva

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ilmiy-mantiqiy dunyoqarashini shakllantirish 208

ONA TILI VA ADABIYOT O'QITUVCHILARINING KVEST TEXNOLOGIYASI ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПО ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ НА ОСНОВЕ КВЕСТОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ

DEVELOPMENT OF COMPETENCE OF TEACHERS OF THE NATIVE LANGUAGE AND LITERATURE TO ORGANIZE CLASSES BASED ON QUEST TECHNOLOGY

Qarshiyeva Dilnoza O'tkirjonovna¹

¹Qarshiyeva Dilnoza O'tkirjonovna

– Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi malaka oshirish jarayonida tinglovchilarni innovatsion texnologiyalardan foydalanib, yangicha zamonaviy darslarni tashkil etish metodikalarini takomillashtirish, bunda Kvest texnologiyalaridan foydalanib darslarni loyihalash kompetentligini rivojlantirish masalalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Kvest texnologiyasi asosida ona tili fani o'qituvchilari darslarining ssenariylari va dars ishlanmalarini shakllantirish ta'lim oluvchilarning innovatsion texnologiyalar asosida loyiha ishini tuzish, muammoli vaziyatlarni hosil qilish va yechimlarini guruh bilan muhokama etish kabi kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun ushbu maqolada biz aynan darslarni kvest texnologiyasi asosida loyihalash samarali natija ekanligini ochib berdik.

Аннотация

В данной статье представлена информация о системе непрерывного профессионального развития обучающихся в процессе повышения квалификации с использованием инновационных технологий и совершенствования методики организации новых современных уроков, а также о вопросах развития компетентности проектирования уроков с использованием квестовых технологий. Формирование сценариев уроков и разработок уроков учителей родного языка на основе технологии квестов способствует развитию у обучающихся таких компетенций, как построение проектной работы на основе инновационных технологий, формирование проблемных ситуаций и обсуждение их решений с группой. Именно поэтому в этой статье мы выяснили, что именно проектирование уроков по технологии квестов является эффективным результатом.

Abstract

This article provides information on the issues of improving the competence of the project of lessons using innovative technologies and organizing new modern lessons in the process of professional development of the system of continuous professional development. The formation of scenarios and lesson developments of the lessons of teachers of the subject of the native language on the basis of the technology of the quest helps to develop competencies of educators, such as drawing up project work based on innovative technologies, creating problem situations and discussing solutions with the group. Therefore, in this article, we revealed that it is precisely the design of classes based on Quest technology that is an effective result.

Kalit so'zlar: kvest, veb-kvest, texnologiya, kompetensiya, loyiha, metod, metodika, ssenariy, dars loyihasi.

Ключевые слова: квест, веб-квест, технология, компетенция, проект, Метод, методика, сценарий, проект урока.

Key words: quest, web quest, technology, competence, project, method, methodology, scenario, lesson project.

KIRISH

Hozir butun dunyo globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirish, darslarni yangi zamon talablari asosida tashkil etish, barkamol shaxsni tarbiyalash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan hozirgi zamon yoshlarini zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Maktabda darslarni yangicha yondashuv asosida tashkil etish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, buning uchun esa maktab o'qituvchilari tinimsiz o'z ustida ishlashni, yangi g'oyalar asosida o'z kasbiy faoliyatlarini uzluksiz rivojlantirib borishni talab etadi. Xususan, O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonida "pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka

oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish”⁹ kabi ustuvor vazifalar belgilangan. bu borada, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida maktab o‘qituvchilarining darslarni loyihalashga oid kompetentligini “kvest” texnologiyasi asosida rivojlantirishni zamonaviy vositalar asosida takomillashtirish, loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xorijda o‘qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirish nazariyasi va amaliyoti, o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirish metodikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar: M.T.Tatto, F.Vogt, & M.Rogalla, K.Zeichner, P.F.Conway, M.Cochran-Smith; darslarni loyihalash metodikasiga oid tadqiqotlar: R.Holubová, Katherine Flatt; fanlarni o‘qitishda “Kvest” va “Veb-kvest” texnologiyalaridan foydalanish muammolariga oid tadqiqotlar: Tuzun Hakan, TSUI Yuen kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. “Kvest” texnologiyasi – bu turli o‘quv vositalar asosida mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishga mo‘ljallangan o‘yinli o‘qitish texnologiyasi, degan xulosaga keldik. Ya’ni rolli o‘yinlarning bir talqini deyish mumkin. Bu shakllanishga qaratilgan individual yoki guruh mashg‘ulotlarining axborot, muammoli yo‘naltirilgan vazifalari turidir [3]. Fanni o‘qitish materiallarini o‘zlashtirish, tadqiq qilish, qayta ishlash va taqdim etish jarayonida ta’lim oluvchining mustaqil faoliyati, izlash va tadqiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Mashg‘ulotda “kvest” texnologiyasidan foydalanishning maqsadi – axborotni tahlil va sintez qilish, oqilona foydalanish bilan baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muayyan masala, mavzu, muammo va uni keyinchalik qayta ishlash bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni olish uchun o‘rganishdir. Shuningdek, ta’lim oluvchining o‘quv materialini mustaqil tanlash, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, mustaqil ravishda qaror qabul qilishni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga “Kvest” texnologiyasi quyidagi tarbiyaviy ahamiyatga ega: shaxsiy javobgarlikni tarbiyalaydi; shaxslararo munosabatlar va bag‘rikenglik madaniyatini shakllantiradi; o‘zini-o‘zi anglash va rivojlantirishga yordam beradi [2].

Shu bois, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida maktab o‘qituvchilarining darslarini loyihalashga oid kompetentligini “Kvest” texnologiyasi asosida rivojlantirishni yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish lozim. Bu esa ta’lim oluvchining ijodiy fikrlashni rivojlantirish, mashg‘ulot vaqtidan oqilona foydalanish orqali ko‘nikmalarini shakllantirish hamda kognitiv kompetentlini rivojlantirishga yordam beradi.

Kvest texnologiyasi asosida ona tili fani o‘qituvchilari darslarini ssenariylari va dars ishlanmalarini shakllantirish ta’lim oluvchilarni innovatsion texnologiyalar asosida loyiha ishini tuzish, muammoli vaziyatlarni hosil qilish va yechimlarini guruh bilan muhokama etish kabi kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uchun muammoli kvest dars ishlanmasi

Elementlar tarkibi

Nomi

Kvest yo‘nalishi

Maqsad va vazifalari

Kvestni ishlab chiqish talablari va mazmuni

Konferensiya! Muammoli kvest.

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi “6-modul. Fanni o‘qitishning dolzarb masalalari, fandagi yangiliklar” moduli, «Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish» mavzusi.

Maqsad: tinglovchilarning mulohaza yuritish, muammoli vaziyatlarda eng maqbul yechimni topish, va turli xil ko‘rinishdagi loyihalar ishlab chiqish kompetentligini takomillashtirish;

Vazifa: tinglovchilarning muammoli vazifalarning loyihasini ishlab chiqishda bosqichlar ketma-ketligini ishlab chiqish, rejalarini tuzish va reja asosida loyihalashga o‘rganish hamda darslarini kvest texnologiyasi asosida loyihalash kompetentligini

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”-gi PQ-4963-sonli qarori..

ILMIY AXBOROT

			takomillashtirish.
Muddati			Qisqa muddatli. 2 akademik soat (1 juftlik)
Ishtirokchilar yoshi/ maqsadli guruh			Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari kursi tinglovchilari (Yoshi aralash). 24 ta tinglovchi
Afsona			Konferensiya! Ishtirokchilar markazda tashkil etiladigan respublika miqyosida tashkil etiladigan maqolalar to'plamini va konferensiyani tashkil etish jarayonining loyihasini ishlab chiqishlari kerak bo'ladi.
Kvest qahramonlari			Kichik guruh ishtirokchilari.
Asosiy vazifa/asosiy g'oya			"O'qituvchining kasbiy standartlari" mavzusida tashkil etiladigan respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etish loyihasini tayyorlashadi. "Muharrirlar", "Programmistlar", "Tashkilotchilar" guruhlariga bo'linadilar va har bir guruh o'zlariga berilgan topshiriqlar yuzasidan loyiha rejalarini taqdimot shaklida namoyish etadilar hamda muhokama qiladilar.
Kvest rejasi va unga yordam beruvchi yo'l			Tashkil etilgan "Muharrirlar", "Programmistlar", "Tashkilotchilar" guruhlariga konferensiyani tashkil etish bo'yicha rejalarini va loyihalarni yaratish hamda ularni chizma-sxema, taqdimot yoki loyiha ishi ko'rinishlarida namoish etish vazifasi beriladi. Guruhlar o'zlari berilgan muammoli vazifalarni tashkil etish bosqichlari ketma-ketligini ishlab chiqadilar, bosqichlar asosida yuklangan vazifalarni amalga oshirishda rollar taqsimlab, jarayonlarni amalga oshirish loyihasini ishlab chiqadilar. Loyihani ishlab chiqishda va taqdimotida uning dizayni, vazifalar guruh a'zolariga to'g'ri taqsimlanganligi vazifalarini to'liq tushunganliklari, taqdimotchining nutqi va loyiha mazmuni va maqsadlari to'liq, to'g'ri ochib berishiga qarab baholanadi.
Manbalar			Maqollar to'plami, internet manbalar ro'yxati, tarqatmali vositalar, electron gadgetlar, asbob-uskunalar va turli manbalar.
O'quvchilar mezonlari	faoliyatini	baholash	Har bir guruh taqdim etgan loyihalari talab darajada tayyorlanganligi, guruhlar ishi mantiqiy birlarini to'ldirishiga, guruh ishtiroklarini birdek ishtiroki, ishlarni amalga oshirishlarida rollar taqsimoti bo'yicha o'zlariga belgilangan vazifalarni tushunganligi va ular yosh xususiyatlariga qarab to'g'ri taqsimlangani qarab, taqdimotlarini dizayni, sifati, taqdimotchining nutqi ravonligi, aniqligi, loyihani tushunarli bayon eta olishiga qarab baholanadi.
Kvestning natijasi, refleksiya			Natija dars mazmuniga mos ma'lumotlar mustaqil o'zlashtiriladi. o'zlarining kasbiy mahoratlarini rivojlantiradi. Refleksiya. Taklif va tavsiyalar tinglanadi.

Darsning tashkiliy qismi. O'qituvchi tinglovchilar bilan salomlashadi va dars mavzusi, sana doskaga yozib qo'yiladi.

Assalomu alaykum hurmatli hamkasblar, bugungi mavzumiz "6-modul. Fanni o'qitishning dolzarb masalalari, fandagi yangiliklar" moduli, «Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish» mavzusi.

– dars bugun zamonaviy texnologiyalardan biri kvest (muammoli) texnologiyasi asosida tashkil etilishi va darsning texnologik xatirasi asosida kvest ssenariysi, mazmuni, shartlari tushuntiriladi.

Guruhlarga ajratish: O'qituvchi oldindan tayyorlagan raqamlar yashirilgan kartochkalarni taqdim etadi. Tinglovchilar tanlagan kartochkalari raqamlariga qarab oldidan tayyorlangan guruh stoli atrofiga jamlanishadi. 1- guruh ya'ni kimga bir raqami tushgan bo'lsa "muharrirlar" guruhiga, 2 raqami tushgan tinglovchilar "programmistlar" guruhiga, 3 raqami tushgan "tashkilotchilar" guruhiga.

Hurmatli hamkasblar bugun "o'qituvchining kasbiy standartlari" mavzusida tashkil etiladigan markazda tashkil etilishi rejalashtirilgan respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etish loyihasini tayyorlaymiz.

"Muharrirlar" guruhi konferensiyaga kelib tushadigan maqolalarni tahrirlash, ular konferensiya to'plami (muqovasi, maqolalar ketma-ketligini) tayyorlash loyihasini ishlab chiqadilar.

"Programmistlar" guruhi konferensiya dasturi, konferensiya to'plami muqovalarining dizayni va konferensiya tashkil etadigan xona moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash, onlayn kuzatish imkoniyati mavjud bo'lganda kerakli dasturlar orqali onlayn-konferensiya tashkil etish loyihasini ishlab chiqadi.

"Tashkilotchilar" guruhi konferensiya kuni keladigan mehmonlarni kutib olish, ro'yxatga olish, xonalarni tayyorlash, har bir ishtirokchiga konferensiyada ishtirok etganliklari uchun sertifikatlar tayyorlash va taqdim etish, mehmonlarga kuzatish loyihasini ishlab chiqadilar.

Loyihalarni taqdim etish shakl va usullari tushuntiriladi hamda mexanizmlarni to'g'ri ishlab chiqish bo'yicha tushunchalar va namunalar taqdim etiladi. Markazda oldin o'tkazilgan konferensiya materiallari, dasturi va jarayonlardan fotosuratlar taqdim etiladi.

Bu kvest darsimizda ishtirokchilarni boshqa fanlarda olgan bilimlarini umumlashtirish, fanlar integratsiyasi, kelajakdagi bir ishni boshlashdan oldin puxta rejasini ishlab chiqishga o'rgatish hamda loyihalarni ishlab chiqish, kompyuter texnikasidan, internet tarmog'idan samarali foydalanishni o'rgatadi.

NATIJA VA TAHLIL

Tadqiqot doirasida uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida tinglovchilarning "Kvest" texnologiyasi asosida darslarning loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish darajasini aniqlash bo'yicha Navoiy viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, qarshi viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida olib borildi. Unda qatnashgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tinglovchilarining ko'rsatkichlari quyidagi jadvallarda keltirilgan. Ya'ni uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi tinglovchilarini motivatsion-qiyimatli mezon bo'yicha ko'rsatkichlari, kognitiv-faollik mezon bo'yicha ko'rsatkichlari, shaxsiy mezon bo'yicha ko'rsatkichlari, refleksiv-ijodiy mezon bo'yicha ko'rsatkichlari quyidagi-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

1-tanlanma					
Tajriba guruhining ko'rsatkichlari	X_i	Yuqori	O'rta	Quyi	Tinglovchilarning umumiy soni
	n_i	68	145	9	$n= 222$
2-tanlanma					
Nazorat guruhining ko'rsatkichlari	Y_j	Yuqori	O'rta	Qo'yi	Tinglovchilarning umumiy soni
	m_j	46	125	53	$m= 224$

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi dars mashg'ulotlarida "Kvest" texnologiyasini qo'llash ijtimoiy-pedagogik texnologiya sifatida, izlanishlarning turli jihatlarida qo'llanilishi mumkin:

- birinchidan, izlanish darsni o'tkazish shakli sifatida tinglovchilarga harakatning faol ishtirokchilari bo'lishlari, bir-biri bilan ijodiy munosabatda bo'lishlari, umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarni hamda zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishga imkon beradi: qarorlarni tezda qabul qilish, noaniqlik sharoitida harakat qilish va jamoada ishlash qobiliyatlari, ijodkorlik fikrlash va boshqalar;

- ikkinchidan, metodik ishlab chiqish uchun topshiriq shakli sifatida "Kvest"lar ijtimoiy voqelikni qurish, syujetlar yaratish, topshiriqlarni loyihalashtirish va shartlarini bajarish ko'nikmalarini talab qiladi. bu tinglovchilarning qiziqishlarini, hozirgi va kelajak haqidagi g'oyalarini ochib berishga, ularning ijtimoiy makon va vaqt toifalari bilan ishlashga imkon beradigan ijodiy ish hisoblanadi. ushbu ish shakli ilmiy, analitik, ijodiy va loyihaviy fikrlashni birlashtirishga imkon beradi.

"Kvest" texnologiyasining yana bir imkoniyati – bu fanlararo bog'liqlikdan foydalanish qobiliyatidir. "kvest" texnologisini qo'llash orqali mashg'ulotlarni tashkil etish davomida muammolarni hal qilish uchun barcha ishtirokchilar bir-biri bilan faol aloqada bo'lishlari, turli ko'nikma va malakalarini oshiradi.

Kuzatish va izlanishlar davomida "kvest" texnologiyasini yuqori pedagogik imkoniyatga ega ekanligi va kasblariga tayyorlashda hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida maktab o'qituvchilarining darslarini loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda istiqbolli texnologiyasi ekanligi aniqlandi. ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar sifatida, umumiy madaniy va kasbiy kompetentligini, qabul qilingan qarorlar uchun mas'uliyatni shakllantirishga va kelajakdagi kasbiy faoliyatini olib borish uchun samarali ta'lim texnologiyasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"-gi PQ-4963-sonli qarori.
2. Айгунова О.А., Вачкова С.Н., Реморенко И.М., Семёнов А.Л.Тимонова Е.Н. Оценка профессиональной деятельности учителя в соответствии с профессиональным стандартом педагога. Педагогическое образование. – С. 8-23.
3. Адольф В.Я. Профессиональная компетентность современного учителя: монография. – Красноярский гос. ун-т. Красноярск, 1998. – С. 310.
4. F.M.Zakirova, D.U.Qarchive, Quest for Pedagogical Technology and Its Use in Education Systems // International Journal on Integrated Education, 2020 // DOI: 10.31149/ijie.v3i5.369
5. D.O'.Karshieva, Improving lesson design competency of school teachers based on "web-quest" technology // Journal of Hunan University (Natural Sciences, Vol. 49. No. 12 December 2022.